



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
STOMATOLOGIYA INSTITUTI**



**“YOSH OLIMLAR KUNLARI”
Respublika ilmiy-amaliy anjumani
xalqaro ishtirok bilan
TEZISLAR TO'PLAMI**

**COLLECTION OF ABSTRACTS
“YOUNG SCIENTISTS DAYS”
Republic scientific and practical conference
with international participation**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ
Республиканской научно-практической конференции
с международным участием
“ДНИ МОЛОДЫХ УЧЁНЫХ”**



Toshkent 29 aprel 2022 y.

УДК: 616.717.8+617.52-089]:616-7/.78-001.8

ББК: 56.65я 43

С 56

Mas'ul muharrir: prof. Shomurodov Q.E., dots. Tuychibaeva D.M.

Tahririyat jamoasi: t.f.d, prof. Baymakov S.R., t.f.n., dots. Yarmuxamedov B.X., Yunusov R.A., t.f.d, dotsent Murtazaev S.S., t.f.d., dots. Dusmuxamedov D.M., t.f.n., dots. Abdullayev D.Sh., Rizayev E.A., t.f.d, prof. Yakubov R.K., t.f.d, prof. Nigmatov R.N., t.f.n., dots. Azizov B., t.f.d, dots. Shukurova U.A., t.f.n., dots. Sattarova D.G., t.f.n., dots. Qurbonova S.Yu., t.f.n., dots. Akramova L.Yu., Nurmatova Q.Ch.

Umumiy tahririyat ostida t.f.d, prof. Haydarov N.K.

Texnik muharrir: Kadirbayeva A.A., Xatamov U.A.

Ushbu to'plam 2022-yil 29-aprel kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "YOSH OLIMLAR KUNLARI" Respublika ilmiy-amaliy anjumani xalqaro ishtirok bilan yakunlari bo'yicha tuzilgan. Nashrlar anjuman rejasiga muvofiq taqdim etilgan. Anjumanda ma'ruza qilingan materiallar, stomatologiya va yuz-jag' jarrohligi, sog'liqni saqlashni tashkil etish, fundamental va klinik fanlar muammolariga oid tezislar chop etildi. Ushbu to'plam talabalar, aspirantlar va klinik ordinatorlar, shuningdek, amaliyotchi shifokorlar uchun tavsiya etiladi.

Maqolalar muallif nashrida taqdim etilgan. Nashr etilgan materiallar mualliflari kotirovkalar, nomlar, nomlar va boshqa ma'lumotlarning haqiqiyliги va to'g'riligi, shuningdek, intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun javobgardir. Qurultoy to'plami materiallarini qayta nashr qilishda tezislar to'plamiga havola kerak bo'ladi.

Настоящий сборник составлен по итогам Республиканской научно-практической конференции "ДНИ МОЛОДЫХ УЧЕННЫХ" с международным участием, состоявшееся 29 апреля 2022 года в городе Ташкенте. Публикации представлены в соответствии с планом проведения конференции. Опубликовано материалы, доложенные на конференции, а также тезисы по проблемам стоматологии и челюстно-лицевой хирургии, организации здравоохранения, фундаментальным и клиническим наукам.

Данный сборник рекомендуются для студентов, студентов магистратуры и клинических ординаторов, а также для практикующих врачей. Статьи представлены в авторской редакции. Ответственность за аутентичность и точность цитат, имен, названий и иных сведений, а также за соблюдение законов об интеллектуальной собственности несут авторы публикуемых материалов. При перепечатке материалов сборника конгресса ссылка на сборник тезисов обязательна.

Dolzarblik. Homilador ayol sog'ligi nafaqat O'zbekiston, balki umumjahon mamlakatlarining tibbiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu nafaqat onada, shu bilan birga bolada ham turli kasalliklar, og'ir asoratlarni hamda nogironlik sonining ko'payishiga olib keladi. Dunyo bo'ylab homilador ayollarda 2021-yil Covid - 19 dan kasallanish 3500000 va o'lim soni 12300 ni tashkil etdi. Bioinformatikada virus gemoglobin metabolizmiga faol ta'sir etib, undan temirni "yulib oladi" va shu tariqa uning replikatsiyasini qobiliyatini oshiradi deyilmoqda. Bunday holda, gipoksiya paydo bo'ladi, ya'ni o'pkaning koronavirus bilan shikastlanishi nafaqat juda ko'p virus mavjudligi sababli, balki virus gemoglobindagi "barcha temirni tortib olishi" tufayli ham kelib chiqadi (worldometer.info). Olimlar Covid-19 bilan kasallangan bemorlarda gemoglobin darajasi, eritrotsit miqdori bir necha baravarga kamayganligini aniqladilar.

Maqsad. Homiladorlardapostkovid sindromida umumiy qon tahlilidagi eritrotsit va gemoglobinlarning nazorati orqali kamqonlik darajalarini o'rganish, homiladorlikning qaysi bosqichida keng tarqalganligini aniqlash.

Material va usullar. Tadqiqot uchun klinik material 2021-yil davomida Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasining homilador ayollar patologiyasi bo'limida postkovid sindromi bilan davolangan 26 nafar homilador ayollar kasallik tarixidagi umumiy qon tahlili ma'lumotlaridan olindi. Bemorlarning yoshi 19-39 yosh, o'rtacha yosh ko'rsatkichi $26,59 \pm 1,62$ ni tashkil etdi. Umumiyqon tahlilidagi gemoglobin miqdori, eritrotsitlar umumiy soni ma'lumotlari o'rganildi.

Kutailayotgan natijalar. Homilador ayollar homilaning rivojlanish bosqichiga ko'ra 3 guruhga ajratildi. I guruh ya'ni homiladorlikning 1 - uch oyli 8 ta bemorda, II guruh ya'ni homiladorlikning 2 - uch oyli 12 ta bemorda va III guruh ya'ni homiladorlikning 3 - uch oyli 6 ta bemorlarda qayd e'tildi.

Bemorlarda kamqonlik darajalari o'rganib chiqilganda yengil daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori $>90\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar soni — 4ta (15,38%), o'rta og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori $90 - 71\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar soni — 16 ta (61,34%), og'ir daraja kamqonlik ya'ni gemoglobin miqdori 70g/l va undan kam bo'lgan bemorlar soni — 6 ta (23,28%) ni tashkil etdi.

Eritrotsit miqdori $3,0 \cdot 10^{12}\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar soni — 9 ta (34,62%), $3,0 - 2,6 \cdot 10^{12}\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar soni — 12 ta (46,15%), $2,5 \cdot 10^{12}\text{g/l}$ va undan kam bo'lgan bemorlar soni — 4ta (15,38%) ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Covid-19 og'ir darajada o'tkazgan homiladorlarda, bu kasallikni o'tkazmagan homiladorlarga gemoglobin va eritrotsit kamayishi bir necha barobarga ko'p uchradi. II guruh ya'ni homiladorlikning 2 - uch oyli dagi bemorlar eng katta qismni tashkil etdi. Turli bosqichlardagi homiladorlarda postkovid sindromida gemoglobin miqdori $90 - 71\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar 61,34%ni, eritrotsit miqdori $3,0 - 2,6 \cdot 10^{12}\text{g/l}$ gacha bo'lgan bemorlar 46,15% ni tashkil etdi.

AYOLLARDA SUT BEZI RAK OLDI KASALLIKLARINING MORFOLOGIKXAROKTERISTIKASI

Yuldashev B.S. Xadjimuratova M.X.

Mavzuning dolzarbligi. Sut bezi o'smasi (SBO') – ayollarda ko'p uchraydigan onkologik kasallik hisoblanadi. Xar yili sut bezi saratoni tashxisi 1,5 mln ayollarga qo'yiladi. Buaholidagi barcha yomon sifatli hosilalarning 25% ni tashkil kiladi. Deyarli bir asr davomida barcha mamlakatlarda ushbu kasallikdan kelib chiqqan o'lim holatlari soni ortib bormoqda. Yevropa ittifoqida SBO' ning 250 ming yangi xolati tashxis qilinadi va 60 mingta kasallar shu kasallikdan vafot etadi. Sut bezi rak oldi kasalliklari—patologik jarayon bo'lib, adenokarsinoma paydo bo'lishiga olib keladi. Rak oldi xolatlari turlicha klinik kurinishda bo'ladi. Afsuski, biz disgormonal giperplaziyani davolashda tibbiy hushyorlikning pastligini va davolash yondashuvlarning bir xilligini aytishimiz kerak. Bu holatning sababini mastopatiyaning klinik ko'rinishlarining keng polimorfizmi, kasallikni keltirib chiqaradigan ko'plab omillar, kasallikning uzoq davom etishi, shu jumladan kasallik aniqlanmagan davr deb hisoblash mumkin.

Ishning maqsadi. Ayollardagi disgormonal kasalliklarning rak oldi xolatlari bilan bog'liqligini o'rganish.

Material va uslublar: 2015-2020 yillarda RIO va RIATM Xorazm filiali poliklinika bo'limiga murojat qilgan bemorlarning ambulator kartalari va ularning kasalliklar tarixlari bo'yicha retrospektiv taxlili.

Natijalar: RIO va RIATM Xorazm filiali poliklinika bo'limiga murojat qilgan jami 515 nafar ayollarning ambulator kartalari taxlil qilindi, shulardan 232 (45,00%) nafarida fibroz-kistoz mastopatiya (FKM), 159 (30,80%) nafarida fibroadenoma (FA), 38 (7,3%) nafarida tugunli yoki fibroz mastopatiya (FM), 10 (1,9%) nafarida steatonekroz, 23 (4,4%) ta papilloma, 18 (3,5%) ta kistoz mastopatiya (KM), 21 (4,0%) lipoma, 14 (2,7%) duktoyektoziya kasalliklari aniqlandi. Kuzatuvga olingan 64 (12,4%) nafar bemordan (rak oldi jarayonlar), 27 (5,2%) nafarida malignizatsiya kuzatilgan, 20 nafar bemorda xavfliga o'tish ehtimoli yuqori, qolgan 17 nafar bemor davolash natijasi samarali yakunlangan.

Bemorlarni yosh jixatdan ajratadigan bo'lsak, 18-44 yoshgacha 371 (72%) ta bemor, 45-59 yoshgacha 93 (18%) ta bemor, 60-74 yoshgacha 37 (7%) ta bemor, 75-90 yoshgacha 14 (2,7%) ta bemor 90 yoshdan yuqori bo'lgan bemorlar kuzatilmadi.

Bundan kurinib turibdiki sut bezining rak oldi kasalliklari ayollarning 18-44 yoshgacha bulgan bo'g'inida ko'proq kuzatilib, gormonal statusning o'zgarishi bunday ayollarda sut bezi o'smasiga displaziyalanishiga sabab bo'ladi. O'rganilgan ayollarning 27 tasida bunday o'zgarishlar mavjud bo'lib, ulardagi xavfsiz o'smalar malignizatsilanib, xavfli o'smalarga aylanishini kuzatdik. Albatta bu juda yomon ko'rsatkich bo'lib, jami o'rganilgan kasallarning 5,2% ini tashkil etadi. Bunday ayollarning anamnezida normal jinsiy hayotning mavjud emasligi, ko'p bola tashlash, abortlar sonining ko'pligi va doimiy jinsiy a'zolarida bo'ladigan yallig'lanish va kista kasalliklarining mavjudligi ilmiy ishimizda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Ayollardagirak oldi jarayonlarini, proliferatsiyalanish mexanizmlarini, gormonal statusga, yoshgabog'liqligini (eng ko'p yoshlarda 18-44 yosh -72% xolatda), yaxshi sifatli o'smalarining malignizatsiyalanish darajasini o'rganish, sut bezi saratonini erta aniqlashda vaoldini olishda muxim ahamiyatga ega xisoblanadi va

poliklinika, birlamchi tibbiy xizmat zvenolarida onkologik extiyotkorlikni kuchaytirish yosh ayollar o'rtasida kasallikning keng tarqalish xolatlarining oldini olish uchun xizmat qilgan bo'lar edi.

ОРОЛ БЎЙИ МИНТАҚАСИ КЎП ТАРМОҚЛИ МАРКАЗИ ЛОР-БЎЛИМИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ.

Авезов М. И.

Тошкент тиббиёт академияси Урганч филиали, Ўзбекистон.

Долзарблиги: Охирги йилларда давлат бюджети томонидан ажратиладиган маблағларнинг кўпайиши, аҳолининг тиббий маданияти ошиши ва тиббиётда замонавий ташхислаш ва даволаш усулларининг қўлланиши қарамасдан оториноларингологик касалликлар тарқалиши тендецияси ошиб бормоқда. Оториноларингологик касалликлар кечиш хусусиятларининг ўзига хослиги ва турли хилдаги асоратланишлари туфайли инсоннинг организми бошқа тизим касалликларига сабаб бўлиши натижасида инсон турмуш сифатига таъсир кўрсатади. Булар натижасида инсоннинг меҳнат қобилияти пасайиши ва ногиронликлар сони ошади.

Тадқиқотнинг мақсади: Хоразм вилояти кўп тармоқли тиббиёт маркази ЛОР бўлимида фаолияти тахлилини ўрганиш.

Материал ва усуллар: текшириш жараёнига 2021 йилда ЛОР касалликлари билан касалланиб, Хоразм вилояти кўп тармоқли тиббиёт маркази ЛОР бўлимига мурожаат қилган ва ётиб даволанган беморлар қиёсий таҳлили ўрганилди.

Натижа ва муҳокама: Хоразм вилояти кўп тармоқли тиббиёт маркази ЛОР бўлими ўз фаолиятини 1966 йил бошлаган бўлиб, ҳозирги кунда 40 койкадан иборат. Ўтган 2021 йил мобайнида бўлимга 2545 бемор мурожаат қилган бўлиб, шундан 1525 (60.%) бемор бўлимда стационар тарзда даволанган бўлса, қолган 1020 (40%) нафар беморга амбулатор ёрдам кўрсатилган. Стационар тарзда даволанган беморларнинг мурожаатларнинг 58% эркаклар, 42% аёллар ташкил қилган. Беморларнинг 23% шаҳар аҳолиси 77% қишлоқ аҳолисига тўғри келиши аниқланди. Мурожаатларнинг туманлар кесимида ўрганиб кўрилганда энг юқори кўрсаткич Урганч шаҳрига 12.3% ва энг паст кўрсаткич Янгибозор туманида 4.9% ташкил қилди. Стационар ётиб даволанган умумий беморларнинг 968 нафари яшаш жойларидан йўлланма билан, 557 нафари ўз мурожаатига кўра ётқизилган.

Умумий стационар шароитда даволанган беморларнинг асосий қисмини 900 (59%) нафарини юқори нафас йўллари касалликлари ва 503 (33%) нафар эшитиш аъзоси касалликлари эгаллади.

Бундан ташқари касалликларнинг нозолигик жихатдан гуруҳларга тақсимлаб ўрганилганда энг юқори кўрсаткич бурун ва бурун ёндош бўшлиғи касалликлари 51% учраши аниқланди. Қулоқ касалликлари 24% учраши билан иккинчи ўринда ва учинчи ва тўртинчи ўринларда мос равишда халқум ва хиқилдоқ касалликлари эгаллаган. Бурун ва бурун ёндош бўшлиғи касалликлари орасида сурункали йирингли риносинуситлар, қулоқ касалликларидан сурункали йирингли ўрта отитлар кўп учрган бўлса халқум ва хиқилдоқ касалликлари орасида сурункали тонзиллитлар кўп учгани аниқланди.

Abdullaev M.A. SIL KASALLIGI BOR BEMORLARDA KECHADIGAN ASORATLARNI OLDINI OLISH	409
Abdusaidova Ch.X., Shayqulov H.SH. KEKSA YOSHDAGI BEMORLARDA BRONXIAL ASTMANING YOSHGA VA JINSGA BOG'LIQLIGI	410
Azimova X.B., Sirojiddinova Z.M. TIBBIYOTDA PSIXOTERAPIYANING AHAMIYATI VA METODLARI	410
Alixonov S.A., Mansurova D.B., Raimova M.M. PARKINSON KASALLIGI DAVOLASHDA TRANSKRANIAL MAGNIT STIMULYATSIYANI O'RNI	411
Ashurboyev F.A. COVID-19 PANDEMIYASI DAVRIDA MAKTAB O'QUVCHILARINING KUN TARTIBIGA VA SALOMATLIK HOLATIGA GIGIYENIK BAHO BERISH	412
Axmedov Yu.M., Mirmadiev M.Sh., Fayzullaev F.S., Axmedov I.Yu. BOLALARDA TUG'MA DIAFRAGMA CHURRALARINI ERTA TASHXISLASH VA DAVOLASHDAGI YUTUQLAR VA KAMCHILIKLAR	414
Dadayeva N.B., Aliyeva K.K. TIZIMLI QIZIL YUGURIK VA GERPEVIRUS INFEKSIYASI TA'SIRI	416
Erkinov Sh.E., Toshmatova G.A. YOSH SPORTCHILARNING OVQATLANISH HOLATINI GIGIYENIK BAHOLASH	416
Hamrayev A. A.XARORATI PAST BO'LGAN DORI VOSITALARINI QO'LLASHNING NOJO'YA TA'SIRLARI	418
Hasanova J.R., Xadjimuratova M.X. AYOLLARDA FIBROADENOMANING DISGORMONAL STATUSGA BOG'LIQLIGI VA KLINIK MORFOLOGIK XARAKTERISTIKASI	419
Ibodova U.Sh. GINEKOLOGIYABO'LIMIDA BEMORLARGA KO'RSATILADIGAN TIBBIY YORDAM SIFATINI BAHOLASH	421
Ibragimov U.S., Narmetova S.Y. ALLERGIK RINITNI DAVOLASHDA LOMILAN PREPARATINI QO'LLASHNING KLINIK AMALIYOTDAGI SAMARADORLIGI	422
Matsapayeva Sh., Komilova M.S. BAKTERIAL KOLPITNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI XAVF OMILLARI VA ULARNING PROFILAKTIKASINI OPTIMALLASHTIRISH.	423
Mahmudov Z.M., Fozilov SH.SH, Ahmedov X.B, Ergashev U.M. QULOQDA O'TKAZILGAN JARROXLIK AMALIYOTIDAN SO'NG TASHQI ESHITUV YO'LI TO'QIMALARI HOLATINI QIYOSIY BAHOLASH	424
Nishonov.A.A TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQAMLI TIBBIYOT VA AXBOROT TEHNALOGIYALARINI JORIY ETISH.	425
Ochilova U.T., Rabbimova G.T. HOMILADORLARDA VULVOVAGINITLARNING ETIOLOGIK TAHLILI	428
Rashidova D. SEMIZLIK FONIDA COVID-19 INFEKSIYASINING KLINIK KECHISHI	429
Raxmonov D.K., Xodjibekova Yu. M. OSHQOZON OSTI BEZI KASALLIKLARIDA PERKUTANAL AMALIYOTLARNI ULTRA TOVUSH TEKSHIRUVI OSTIDA O'TKAZISHNING YANGI USULLARI VA QO'LLANISHLARI.	430
Qosimova S.S., Adjablayeva D.N. BIRINCHI MARTA DORILARGA CHIDAMLI SIL ANIQLANGAN BEMORLARDA DAVOLASHNING GEPATOTOKSIK TA'SIRLARINING TAXLILI	432
Qosimova Z.M., Abduraxmanova S.I. VARIKOZ KASALLIGI BO'LGAN AYOLLARDA HOMILADORLIK KECHISH JARAYONI VA NATIJALARI	433
Qulmatov G'O., Satliqov R.K. SIYDIK AJRATISH TIZIMI KASALLIKLARI QO'ZG'ATUVCHILARINING MIKROBIOLOGIK XUSUSIYATLARI.	435
Zaynutdinova D. L. Do'smatov I.Z. To'ychiboyev B.O. Uzoqov J.Y. HOMILADORLARDA POST KOVID SINDROMIDA ERITROTSIT VA GEMOGLOBIN NAZORATI	436
Yuldashev B.S. Xadjimuratova M.X. AYOLLARDA SUT BEZI RAK OLDI KASALLIKLARINING MORFOLOGIK XAROKTERISTIKASI	437